

XALQARO FOND BOZORLARIDA O'ZBEKISTON KOMPANIYALARINING ISHTIROKI

Normurzaeva Lobar Safarali qizi

O'zbekiston Respublikasi Bank-Moliya Akademiyasi magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18363107>

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston kompaniyalarining xalqaro fond bozorlaridagi ishtiroki, ushbu jarayonning milliy iqtisodiyot rivojiga ta'siri hamda xorijiy kapital bozorlariga chiqishning institutsional va moliyaviy mexanizmlari kompleks ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida O'zbekiston korxonalarining aksiyalarni birlamchi ommaviy joylashtirish (IPO), xalqaro obligatsiyalar va boshqa moliyaviy instrumentlar orqali global kapital bozorlariga integratsiyalashuvi jarayoni tizimli yondashuv asosida o'rganiladi.

Shuningdek, maqolada xalqaro fond bozorlarida ishtirok etish jarayonida yuzaga keladigan huquqiy, institutsional va tashkiliy to'siqlar, jumladan, korporativ boshqaruv sifati, moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarga mosligi, axborot shaffofligi hamda investorlar huquqlarini himoya qilish masalalari tahlil qilinadi.

Xalqaro tajriba va rivojlangan kapital bozorlariga ega davlatlar amaliyoti asosida O'zbekiston kompaniyalarining raqobatbardoshligini oshirish va xorijiy investorlar ishonchini mustahkamlash yo'llari yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: xalqaro fond bozorlari, kapital bozorlari, O'zbekiston kompaniyalari, IPO jarayoni, xalqaro obligatsiyalar, xorijiy investitsiyalar, moliyaviy integratsiya, korporativ boshqaruv, investitsion jozibadorlik, fond birjalari, moliyaviy instrumentlar, kapital jalb qilish mexanizmlari, investorlar ishonchi, moliyaviy shaffoflik, iqtisodiy rivojlanish.

PARTICIPATION OF UZBEK COMPANIES IN INTERNATIONAL STOCK MARKETS

Abstract. This article provides a comprehensive scientific analysis of the participation of Uzbek companies in international stock markets, the impact of this process on the development of the national economy, and the institutional and financial mechanisms for entering foreign capital markets. The study examines the process of integration of Uzbek enterprises into global capital markets through initial public offerings (IPOs), international bonds, and other financial instruments based on a systematic approach.

The article also analyzes legal, institutional, and organizational obstacles that arise in the process of participating in international stock markets, including the quality of corporate governance, compliance of financial reporting with international standards, information transparency, and investor rights protection.

Based on international experience and the practice of countries with developed capital markets, ways to increase the competitiveness of Uzbek companies and strengthen the trust of foreign investors are highlighted.

Keywords: international stock markets, capital markets, Uzbek companies, IPO process, international bonds, foreign investments, financial integration, corporate governance, investment attractiveness, stock exchanges, financial instruments, capital raising mechanisms, investor confidence, financial transparency, economic development.

Kirish

So‘nggi yillarda jahon iqtisodiyotida globallashtirish jarayonlarining jadallashtirish va kapital harakatining erkinlashuvi xalqaro fond bozorlarining ahamiyatini keskin oshirdi. Xalqaro fond bozorlari mamlakatlar va kompaniyalar uchun uzoq muddatli moliyaviy resurslarni jalb qilish, investitsion risklarni diversifikatsiyalash hamda iqtisodiy o‘rnatishni rag‘batlantirishning muhim manbalaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlar uchun global kapital bozorlariga integratsiyalashuv milliy iqtisodiyotning ochiqdigi va raqobatbardoshligini oshirishda muhim strategik omil hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar, bozor mexanizmlarini chuqurlashtirish va investitsion muhitni yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida milliy kompaniyalarning xalqaro moliya bozorlariga chiqish imkoniyatlari kengayib bormoqda.

Xususan, aksiyalarni birlamchi ommaviy joylashtirish (IPO) va xalqaro obligatsiyalar chiqarish orqali xorijiy investitsiyalarni jalb etish amaliyoti bosqichma-bosqich rivojlanmoqda. Bu jarayon nafaqat kompaniyalar moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga, balki korporativ boshqaruv sifatini oshirish va xalqaro standartlarni joriy etishga ham xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, O‘zbekiston kompaniyalarining xalqaro fond bozorlaridagi ishtiroki hali yetarli darajada shakllanmagan bo‘lib, ushbu yo‘nalishda qator institutsional, huquqiy va tashkiliy muammolar saqlanib qolmoqda. Moliyaviy hisobotlarning shaffofligi, investorlar huquqlarini himoya qilish, korporativ boshqaruv tizimining samaradorligi kabi omillar xalqaro investorlar uchun muhim mezonlar hisoblanadi. Mazkur holatlar ushbu mavzuni chuqur ilmiy tadqiq etish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha asoslangan takliflar ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi.

Aynan shu sababli, mazkur maqolada O‘zbekiston kompaniyalarining xalqaro fond bozorlaridagi ishtiroki, uning iqtisodiy ahamiyati hamda rivojlanish istiqbollari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi.

Adabiyotlar sharhi: Xalqaro fond bozorlarida kompaniyalar ishtiroki masalasi so‘nggi yillarda moliyaviy iqtisodiyot va kapital bozorlari nazariyasida muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllandi. Ushbu yo‘nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar kompaniyalarning global kapital bozorlariga chiqishi ularning moliyaviy barqarorligi, korporativ boshqaruv sifati va investitsion jozibadorligiga bevosita ta‘sir ko‘rsatishini asoslab bermoqda.

Levine R. – Financial Development and Economic Growth o‘z tadqiqotlarida fond bozorlarining rivojlanishi iqtisodiy o‘rnatishning muhim drayveri ekanini ta‘kidlab, kapital bozorlariga chiqish korxonalar uchun uzoq muddatli investitsiyalarni jalb etish imkonini kengaytirishini ilmiy jihatdan asoslaydi. Muallif fond bozorlarining chuqurligi va likvidligi kompaniyalarning global integratsiyasida muhim rol o‘ynashini qayd etadi.

Mishkin F. – The Economics of Money, Banking and Financial Markets xalqaro kapital bozorlarining institutsional asoslarini tahlil qilib, IPO va obligatsiyalar orqali moliyalashtirish mexanizmlarini kompaniyalar strategik rivojlanishining muhim vositasi sifatida ko‘rsatadi. Uning fikricha, rivojlanayotgan mamlakatlarda fond bozorlariga chiqish moliyaviy intizomni kuchaytiradi.

Claessens S. and Yurtoglu B. tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda korporativ boshqaruv va xalqaro investorlar ishonchi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik yoritilgan.

Mualliflar aksiyalarni xalqaro fond birjalarida joylashtirish kompaniyalardan yuqori darajadagi shaffoflik va hisobdorlikni talab etishini ta'kidlaydi.

Damodaran A. – Investment Valuation kompaniyalarni xalqaro fond bozorlariga tayyorlash jarayonida baholash mexanizmlarining ahamiyatini ochib beradi. Muallif IPO oldi baholash jarayonlarining noto'g'ri olib borilishi investorlar ishonchiga salbiy ta'sir ko'rsatishini ilmiy asoslaydi.

World Bank – Capital Market Development Reports hisobotlarida rivojlanayotgan mamlakatlar kompaniyalarining global kapital bozorlariga chiqishi investitsion muhitni yaxshilash va xususiy sektor rivojini tezlashtirishga xizmat qilishi qayd etilgan. Hisobotlarda institutsional islohotlarning zarurligi alohida ta'kidlanadi.

International Monetary Fund – Global Financial Stability doirasidagi tadqiqotlarda xalqaro fond bozorlarida ishtirok etish bilan bog'liq moliyaviy risklar va ularni boshqarish masalalari chuqur tahlil qilingan. IMF ekspertlari kompaniyalar uchun risklarni diversifikatsiyalash muhimligini ko'rsatadi.

Fabozzi F. – Bond Markets, Analysis and Strategies obligatsiyalar orqali xalqaro fond bozorlariga chiqishning nazariy va amaliy jihatlarini yoritadi. Muallif xalqaro obligatsiyalar kompaniyalarga valyuta risklari bilan birga yangi moliyaviy imkoniyatlar yaratishini ta'kidlaydi.

Ross S., Westerfield R., Jordan B. korporativ moliya nazariyasi asosida fond bozorlari va kompaniya qiymati o'rtasidagi bog'liqlikni izohlaydi. Tadqiqotlarda IPO kompaniya kapital tuzilmasini optimallashtirishda muhim rol o'ynashi ko'rsatilgan.

OECD – Capital Market Review hisobotlarida milliy kompaniyalarni xalqaro fond bozorlariga integratsiyalashuvi iqtisodiy liberallashtirish darajasi bilan chambarchas bog'liq ekanligi qayd etilgan. OECD tajribasi institutsional muhitni mustahkamlash zarurligini ko'rsatadi.

Markaziy bank tomonidan e'lon qilingan tahliliy materiallarda O'zbekiston kompaniyalarining xalqaro kapital bozorlariga chiqish istiqbollari va mavjud muammolar yoritilgan. Ushbu manbalarda milliy fond bozorini rivojlantirish global integratsiyaning muhim sharti sifatida baholanadi.

Metodologiya: Mazkur tadqiqotda O'zbekiston kompaniyalarining xalqaro fond bozorlaridagi ishtirokini o'rganish jarayoni kompleks va tizimli yondashuv asosida amalga oshirildi. Tadqiqot metodologiyasi nazariy va empirik usullarning uyg'unlashuvi orqali shakllantirilib, mavzuning iqtisodiy mohiyatini chuqur ochib berishga qaratildi. Ushbu yondashuv kompaniyalarning global kapital bozorlariga chiqish jarayonlarini ko'p qirrali tahlil qilish imkonini berdi.

Tadqiqotning nazariy asosini kapital bozorlari rivoji, moliyaviy integratsiya, korporativ moliya va korporativ boshqaruvga oid ilmiy konsepsiyalar tashkil etadi. Ushbu doirada umumlashtirish, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilib, xalqaro fond bozorlarida kompaniyalar ishtirokining iqtisodiy mazmuni va ularning moliyaviy barqarorlikka ta'siri aniqlab berildi. Ilmiy adabiyotlar tahlili orqali IPO va obligatsiyalar chiqarishning nazariy asoslari hamda rivojlanayotgan davlatlar tajribasi o'rganildi.

Empirik tadqiqot jarayonida statistik tahlil usullari qo'llanildi. O'zbekiston kompaniyalarining xalqaro fond bozorlariga chiqish holati, jalb qilingan investitsiyalar hajmi va moliyalashtirish instrumentlari dinamikasi qiyosiy tahlil asosida baholandi.

Shuningdek, xalqaro va milliy kapital bozorlaridagi farqlarni aniqlash maqsadida solishtirma tahlil usuli keng qo'llanildi. Bu usul O'zbekiston kompaniyalarining xalqaro fond bozorlaridagi ishtirok darajasini ob'ektiv baholash imkonini berdi.

Tadqiqotda tizimli tahlil usuli muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu yondashuv orqali kompaniyalarning xalqaro fond bozorlariga chiqish jarayoniga ta'sir etuvchi institutsional, huquqiy va tashkiliy omillar o'zaro bog'liqlikda o'rganildi. Bunda korporativ boshqaruv sifati, moliyaviy hisobotlarning shaffofligi hamda investorlar ishonchini shakllantiruvchi omillar alohida tahlil qilindi.

Shuningdek, iqtisodiy-mantiqiy tahlil va ekspert baholash usullaridan foydalanildi. Ushbu usullar yordamida xalqaro fond bozorlarida ishtirok etishning ijobiy va salbiy jihatlari aniqlanib, O'zbekiston kompaniyalari uchun eng maqbul moliyalashtirish mexanizmlarini tanlash bo'yicha xulosalar ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari asosida amaliy tavsiyalarni shakllantirishda prognozlash va stsenariy tahlili elementlaridan ham foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston kompaniyalarining xalqaro fond bozorlaridagi ishtiroki so'nggi yillarda bosqichma-bosqich rivojlanib bormoqda. Ayniqsa, iqtisodiy liberallashtirish, xususiyashtirish jarayonlarining jadallashuvi va investitsion muhitni yaxshilashga qaratilgan islohotlar milliy kompaniyalar uchun global kapital bozorlariga chiqish imkoniyatlarini kengaytirdi. Ushbu jarayon xalqaro investorlar tomonidan O'zbekiston iqtisodiyotiga bo'lgan ishonchning oshib borayotganidan dalolat beradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston kompaniyalari xalqaro fond bozorlariga asosan IPO va xalqaro obligatsiyalar chiqarish orqali chiqmoqda. IPO jarayoni kompaniyalarga uzoq muddatli kapital jalb qilish, aksiyadorlik tuzilmasini diversifikatsiyalash hamda korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish imkonini bermoqda. Xalqaro obligatsiyalar esa moliyalashtirish manbalarini kengaytirish bilan birga, valyuta tushumlarini barqarorlashtirish va investitsion loyihalarni moliyalashtirishda muhim instrument sifatida namoyon bo'lmoqda.

Empirik tahlil natijalari xalqaro fond bozorlarida ishtirok etgan kompaniyalarda moliyaviy shaffoflik va hisobdorlik darajasi sezilarli darajada oshganini ko'rsatadi. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlarining joriy etilishi, mustaqil audit institutlari bilan hamkorlik va axborot ochiqligining kengayishi kompaniyalar faoliyatining barqarorligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Bu holat investorlar ishonchini kuchaytirib, kompaniyalar aksiyalarining bozor qiymatiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu bilan birga, tahlil jarayonida qator tizimli muammolar ham aniqlanmoqda. Jumladan, ayrim kompaniyalarda korporativ boshqaruv amaliyotining yetarli darajada rivojlanmaganligi, aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish mexanizmlarining sustligi hamda moliyaviy ma'lumotlarning yetarli darajada ochiq emasligi xalqaro investorlar uchun muhim to'siq bo'lib qolmoqda. Bu omillar kompaniyalarning xalqaro fond bozorlaridagi raqobatbardoshligini cheklashi mumkin.

Tahlil natijalari shuni ham ko'rsatadiki, xalqaro fond bozorlarida ishtirok etish kompaniyalarning moliyaviy ko'rsatkichlariga uzoq muddatli ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Kapital tuzilmasining optimallashtirish, investitsion faollikning oshishi va risklarni diversifikatsiyalash imkoniyatlari kompaniyalar moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi.


Ayniqsa, eksportga yoʻnaltirilgan va yirik investitsion loyihalarni amalga oshirayotgan kompaniyalar uchun xalqaro kapital bozorlariga chiqish strategik ahamiyat kasb etadi.

Soʻnggi besh yillikda Oʻzbekiston kompaniyalarining xalqaro fond bozorlaridagi ishtiroki boʻyicha koʻrsatkichlar sezilarli darajada oʻsish tendensiyasini namoyon etdi. 2020-yilda xalqaro kapital bozorlaridan jalb qilingan umumiy mablagʻlar hajmi taxminan 1,2 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan boʻlsa, ushbu koʻrsatkich 2024-yil yakuniga kelib 4,5 mlrd AQSh dollaridan oshdi.

Bu esa besh yil ichida jalb qilingan xorijiy moliyaviy resurslar hajmi qariyb 3,7 barobarga oshganini koʻrsatadi.

2020-yilda pandemiya sharoitida xalqaro fond bozorlaridagi faollik nisbatan cheklangan boʻlib, asosan davlat ulushiga ega yirik kompaniyalar tomonidan 1,0–1,2 mlrd AQSh dollari miqdorida xalqaro obligatsiyalar joylashtirilgan. 2021-yilda iqtisodiy tiklanish jarayoni bilan birga ushbu koʻrsatkich 1,8 mlrd AQSh dollariga yetdi va investorlar faolligining tiklana boshlaganini namoyon etdi.

2022-yildan boshlab Oʻzbekiston kompaniyalarining xalqaro fond bozorlaridagi ishtirokida yangi bosqich kuzatildi. Ushbu yilda xalqaro obligatsiyalar va IPO mexanizmlari orqali jalb qilingan mablagʻlar hajmi 2,6 mlrd AQSh dollarini tashkil etdi. Xususan, infratuzilma, energetika va bank sektoriga yoʻnaltirilgan emissiyalar ustunlik qildi. 2023-yilda esa xalqaro fond bozorlaridan jalb qilingan mablagʻlar hajmi 3,7 mlrd AQSh dollariga yetib, yillik oʻsish surʼati 42 foizni tashkil etdi.



1-rasm.2024-yilda Oʻzbekiston kompaniyalarining xalqaro fond bozorlarida jalb qilgan mablagʻlari tarkibi

Manba: Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki, Moliya vazirligi va xalqaro moliyaviy institutlar (IMF, World Bank) maʼlumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

2024-yil yakuniy maʼlumotlariga koʻra, Oʻzbekiston kompaniyalari tomonidan xalqaro fond bozorlarida joylashtirilgan obligatsiyalar va aksiyalar hajmi 4,5 mlrd AQSh dollaridan oshdi.

Ushbu mablag'larning qariyb 65 foizi xalqaro obligatsiyalar hissasiga, 35 foizi esa IPO va aksiyalar joylashtirish operatsiyalariga to'g'ri keldi. Bu holat kompaniyalar tomonidan bozor mexanizmlariga asoslangan moliyalashtirish instrumentlaridan foydalanish kengayotganini ko'rsatadi.

Shuningdek, statistik tahlil xalqaro fond bozorlarida ishtirok etayotgan O'zbekiston kompaniyalari soni ham oshib borayotganini ko'rsatadi. Agar 2020-yilda bunday kompaniyalar soni 5–6 ta atrofida bo'lgan bo'lsa, 2024-yilga kelib ularning soni 15 tadan ortiqni tashkil etdi.

Jalb qilingan investitsiyalarning katta qismi sanoat modernizatsiyasi, energetika loyihalari va moliya sektorini rivojlantirishga yo'naltirilgan.

2020–2024-yillar bo'yicha statistik ko'rsatkichlar O'zbekiston kompaniyalarining xalqaro fond bozorlaridagi ishtiroki barqaror o'sish bosqichiga kirganini tasdiqlaydi. Jalb qilingan mablag'lar hajmining oshishi, instrumentlar turining kengayishi va kompaniyalar sonining ko'payishi milliy iqtisodiyotning global kapital bozorlariga integratsiyalashuv darajasi oshib borayotganini ko'rsatadi.

Muhokama

O'zbekiston kompaniyalarining xalqaro fond bozorlaridagi ishtiroki ijobiy dinamikaga ega ekanligini ko'rsatadi. Biroq ushbu jarayonni baholashda nafaqat jalb qilingan kapital hajmi, balki uning iqtisodiy samaradorligi, barqarorligi va uzoq muddatli ta'siri ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, olingan natijalar rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi bilan qiyoslanganda, O'zbekiston kapital bozorlarining global tizimga integratsiyalashuvi hali dastlabki bosqichda ekanligini ko'rsatadi.

Statistik ma'lumotlar jalb qilingan mablag'lar hajmining tez o'sishini tasdiqlagan bo'lsa-da, ushbu moliyalashtirish asosan xalqaro obligatsiyalar hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu holat kompaniyalar tomonidan qarz instrumentlariga nisbatan ustuvorlik berilayotganini anglatadi. Bir tomondan, obligatsiyalar orqali moliyalashtirish qisqa muddatda katta hajmdagi resurslarni jalb etish imkonini bersa, boshqa tomondan, tashqi qarz yukining ortishi va valyuta risklarining kuchayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, xalqaro fond bozorlaridagi ishtirokni faqat qarz instrumentlari bilan cheklab qo'yish uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimoli mavjud.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, IPO orqali fond bozorlariga chiqish holatlari nisbatan kam bo'lib, bu korporativ boshqaruv va shaffoflik bilan bog'liq omillar bilan izohlanadi.

Xalqaro amaliyot shuni ko'rsatadiki, aksiyalarni ommaviy joylashtirish kompaniyalardan yuqori darajadagi ochiqlik, mustaqil direktorlar instituti va samarali ichki nazorat tizimini talab etadi. O'zbekiston kompaniyalarining aksariyatida ushbu institutlar to'liq shakllanmaganligi IPO faolligini cheklab kelmoqda.

Shuningdek, xalqaro investorlar uchun muhim bo'lgan huquqiy barqarorlik va prognoz qilinuvchanlik masalalari ham muhokama markazida turadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, normativ-huquqiy bazaning tez-tez yangilanib borishi va ayrim tartib-taomillarning murakkabligi investorlar qarorlariga ehtiyotkorlik bilan yondashishga majbur qilmoqda. Bu holat xalqaro fond bozorlaridagi ishtirokni miqdoriy jihatdan oshirish bilan birga, sifat jihatdan ham chuqurlashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston kompaniyalarining xalqaro fond bozorlaridagi ishtirokini barqaror rivojlantirish uchun moliyaviy resurslarni jalb qilishdan tashqari, ularning samarali foydalanilishini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Jalb qilingan kapitalning ishlab chiqarish modernizatsiyasi, innovatsiyalar va eksport salohiyatini oshirishga yo'naltirilishi iqtisodiy samaradorlikni kuchaytiradi va investorlar ishonchini mustahkamlaydi.

Umuman olganda, muhokama shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston kompaniyalarining xalqaro fond bozorlaridagi ishtiroki sezilarli imkoniyatlarga ega bo'lsa-da, ushbu jarayonni chuqurlashtirish institutsional islohotlar, korporativ boshqaruvni takomillashtirish va kapital bozorlarini rivojlantirish bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu omillar hisobga olingan holda olib boriladigan siyosat xalqaro fond bozorlarida barqaror va samarali ishtirokni ta'minlashga xizmat qiladi.

Xulosa

Mazkur tadqiqot O'zbekiston kompaniyalarining xalqaro fond bozorlaridagi ishtiroki so'nggi yillarda izchil rivojlanib borayotganini va ushbu jarayon milliy iqtisodiyot uchun muhim strategik ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Olib borilgan tahlil va statistik natijalar xalqaro kapital bozorlariga chiqish orqali kompaniyalar tomonidan jalb qilinayotgan moliyaviy resurslar hajmi barqaror oshib borayotganini, moliyalashtirish instrumentlari tarkibi esa tobora diversifikatsiyalanayotganini tasdiqladi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, xalqaro fond bozorlarida ishtirok etish kompaniyalarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, investitsion faollikni oshirish hamda korporativ boshqaruv tizimini xalqaro standartlarga moslashtirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, moliyaviy shaffoflik va hisobdorlik darajasining oshishi xorijiy investorlar ishonchini kuchaytirib, kompaniyalar bozor qiymatining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu bilan birga, tadqiqot davomida aniqlangan muammolar O'zbekiston kompaniyalarining xalqaro fond bozorlaridagi ishtirokini yanada kengaytirish uchun institutsional va huquqiy islohotlarni chuqurlashtirish zarurligini ko'rsatadi. IPO mexanizmlaridan foydalanishning cheklanganligi, korporativ boshqaruv institutlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda tashqi moliyalashtirishda obligatsiyalarga yuqori darajada tayanish uzoq muddatli barqarorlik nuqtai nazaridan muayyan risklarni yuzaga keltirishi mumkin.

Umuman olganda, O'zbekiston kompaniyalarining xalqaro fond bozorlaridagi ishtiroki milliy kapital bozorining rivojlanishi, iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalar oqimini ko'paytirish va global moliya tizimiga integratsiyalashuvni jadallashtirish uchun muhim omil hisoblanadi. Ushbu jarayonni izchil davom ettirish va sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish davlat siyosati, kompaniyalar strategiyasi va institutsional muhitni uyg'un rivojlantirishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Levine, R. (2005). *Finance and Growth: Theory and Evidence*. Handbook of Economic Growth, 1, 865–934.
2. Mishkin, F.S. (2019). *The Economics of Money, Banking and Financial Markets*. 12th ed. Boston: Pearson Education.
3. Claessens, S. & Yurtoglu, B. (2013). *Corporate Governance in Emerging Markets: A Survey*. Emerging Markets Review, 15, 1–33.

4. Damodaran, A. (2012). *Investment Valuation: Tools and Techniques for Determining the Value of Any Asset*. 3rd ed. New York: Wiley.
5. Ross, S.A., Westerfield, R.W. & Jordan, B.D. (2021). *Fundamentals of Corporate Finance*. 13th ed. New York: McGraw-Hill Education.
6. Fabozzi, F.J. (2016). *Bond Markets, Analysis and Strategies*. 9th ed. Boston: Pearson Education.
7. OECD (2020). *Capital Market Development: Policy Issues and Challenges*. Paris: OECD Publishing.
8. World Bank (2021). *Developing Local Capital Markets: Lessons from Emerging Economies*. Washington, DC: World Bank.
9. International Monetary Fund (2022). *Global Financial Stability Report*. Washington, DC: IMF.
10. International Monetary Fund (2023). *World Economic Outlook*. Washington, DC: IMF.
11. World Bank (2023). *Global Economic Prospects*. Washington, DC: World Bank.
12. OECD (2022). *Corporate Governance Factbook*. Paris: OECD Publishing.
13. Markaziy bank (2021). *O'zbekiston Respublikasi moliya bozori bo'yicha yillik hisobot*. Toshkent.
14. Markaziy bank (2022). *O'zbekiston moliya tizimining rivojlanish tendensiyalari*. Toshkent.
15. Moliya vazirligi (2023). *Davlat va korporativ qimmatli qog'ozlar bozori tahlili*. Toshkent.
16. EBRD (2021). *Capital Markets Development in Transition Economies*. London: European Bank for Reconstruction and Development.
17. PwC (2022). *IPO Watch: Global Trends*. London: PricewaterhouseCoopers.
18. Ernst & Young (2023). *Global IPO Trends*. London: EY Global.